



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI PIRLS VA TIMSS XALQARO BAHOLASH SINOVLARIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI METODIKASINING PEDAGOGIK MAZMUNI, SHAKL VA USULLARI

Matyakubova N.A.

*Urganch davlat universiteti, Pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich
ta’lim metodikasi” kafedrasida o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: IEA, Xalqaro baholash dasturi, TIMSS, eTIMSS, PIRLS, o‘quv dastur modeli, kognitiv sohalar, PSI.

Ключевые слова: IEA, Программа международной оценки, TIMSS, eTIMSS, PIRLS модель учебной программы, когнитивные области, PSI.

Key words: IEA, Program for International Assessment, TIMSS, eTIMSS, PIRLS, curriculum model, cognitive domains, PSI.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyayevning Oliy Majlisga murojaatnomasida davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta’lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan edi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida dunyoda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha yetakchilik qilib kelayotgan xalqaro baholash dasturlari, jumladan TIMSS va PIRLS dasturlarida ishtirok etishga kirishildi. Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta’lim sifatini oshirish bilan bog‘liqdir. Unda ishtirok etish, balki, jahon hamjamiyatida o‘quvchilarning o‘quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini, baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya’ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash



ko'nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o'tishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Axborotnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ilmiy kengashining 2021-yil 29-martdagi yig'ilish (1-son bayonnomasi) qaroriga asosan tavsiya qilingan axborotnoma asosida qilingan tajriba ishlari ham maqolada yoritib berildi. Mullis, I.V.S., Martin. M.O (Eds). (2017). TIMSS 2019 Assessment Frameworks. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center-O'zbekistonda nashr qilingan qo'llanmadan foydalanildi. M.S.Salayeva "Umumiy pedagogika" Darslik, "Nodirabegim" nashriyoti, T:-2021, 269-274- varaqlaridagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha kiritilgan ma'lumotlar tahlil qilindi hamda IEA. TIMSS & PIRLS, International Study Center. TSBM- Talim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan nashr qilingan 2021-yildagi "TIMSS 2019 Baholash qamrovi doirasi" qo'llanma ham tahliliy o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. PIRLS – matnni o'qish va tushunish darasini aniqlovchi xalqaro tashkilot. 2021-yilda o'tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturi 60 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etdi. Shu kungacha tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016, 2021-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich 4-sinf o'quvchilari ilk marotaba ishtirok qilishdilar, umumiy 57 mamlakat qatnashgan bo'lsa, bizning 4-sinf o'quvchilari 49-o'rinni egalladilar. Bu yaxshi natija emas, albatta, kelgusi 2026-yilga aniqlangan bo'shliqlarni o'rgangan holda yuqori 20 talik mamlakatlar qatoriga qo'shilish uchun o'rganishning, tayyorgarlikning yangi metodlarini ishlab chiqishimiz zarur hisoblanadi.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq



holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

Quyi daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

Boshlang'ich sinflarimizning o'qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa mamlakat o'qituvchilari foydalanayotgan metodlardan farq qiladimi? Kabi asosiy masalalarga ilmiy ishimizda yechim izlash va topib, amaliyotda qo'llab, natijadorlikka erishish uchun ushbu dolzarb mavzu olingan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash sinovlariga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari metodikasining pedagogik mazmuni, shakl va usullari bo'yicha ilmiy ishimizning 2-bobi bo'yicha ko'plab adabiyotlar metodologik tahlil qilindi.

Rossiya ta'lim akademiyasi Ta'limni rivojlantirish strategilari instituti, Boshlang'ich ta'lim markazi yetakchi ilmiy xodimi, p.f.d., Kuznetsova Marina Ivanovna, PIRLS 2021 Xalqaro solishtirma tadqiqoti doirasida o'qish savodxonligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha "PIRLSda Rossiyalik boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar" bo'yicha qilgan taqdimotlari, seminar-trening jarayonlari tahliliy o'rganildi.

Jumladan, IEA – Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash assotsiatsiyasi bilan kelishilgan holda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan ko'plab tarjimalar asosida xalqaro baholashga doir savol va topshiriqlar namunalari, yangiliklar davlatimiz ta'lim tizimiga kiritilmoqda. TIMSS- (Trends in International Mathematics and Scien Study) – bu to'rtinchi va sakkizinchi sinflarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha keng joriy qilingan xalqaro baholash dasturi. TIMSS tadqiqoti doirasida birinchi baholash 1995-yilda o'tkazilgan va har to'rt yilda takrorlangan: 1999, 2003, 2007, 2011, 2015, 2019. TIMSS 2019 tadqiqotida 60 ga yaqin mamlakat global kontekstda o'z ta'lim tizimining samaradorligini monitoring qilishda TIMSS trend ma'lumotlaridan foydalanadi va har davriylikda TIMSS tadqiqotida yangi davlatlar qo'shiladi. TIMSS 2023 – yil



tadqiqotida O‘zbekiston Respublikasi o‘quvchilari ham qatnashdilar. Natijalari 2024-yil yakunlariga qadar chiqib qolish ehtimolida. Matematika va tabiiy fanlarni baholash bo‘yicha TIMSS tadqiqoti ta’lim samaradorligini monitoring qilishda qimmatli manba hisoblanadi, chunki, odatda, STEM deb nomlanadigan tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematika o‘quv dasturining asosiy yo‘nalishlaridir.

TIMSS 2015 ensiklopediyasidagi (Mullis, Martin, Goh va Gotter, 2016) ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, tadqiqotda ishtirok etuvchi davlatlarning o‘quv dasturlari, ta’lim standartlari va baholash doiralarini aks ettirish uchun alohida mavzularga kichik yangilanishlar kiritildi. Endilikda TIMSS 2019 tadqiqotidan eTIMSS ga o‘tishga e’tibor qaratilganligi sababli matematika qamrov doirasida yangilangan bo‘lib, qog‘oz shaklidagi topshiriqlardan raqamli (kompyuter) shakldagi topshiriqlarini baholashga o‘tiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad kompyuter yordamida baholashning afzalliklaridan foydalanish bo‘lib, bu o‘z navbatida, qo‘llash va mulohaza yuritish mazmun sohaslarida baholashning yangi va takomillashtirilgan metodlarni yaratilishiga olib keladi.

Tahlil va natijalar.

IEA – ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi 60 yildan buyon milliy tadqiqot institutlari va davlat idoralarining mustaqil xalqaro hamkori bo‘lib, 1959-yildan buyon mamlakatlararo yutuqlar bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazib kelmoqda. 1960 – yillarda IEA birinchi marta turli mamlakatlarning ta’lim tizimlariga siyosatning ta’sirini chuqurroq anglash uchun ta’lim sohasidagi yutuqlar bo‘yicha xalqaro qiyosiy baholashni o‘tkazdi.

Mazmun sohalari va kognitiv sohalari 4-8-sinflarda foizlarda belgilanadi. Kognitiv sohalarga – bilish – qo‘llash – mulohaza yuritish.

Kognitiv sohalari	To‘rtinchi sinf	Sakkizinchi sinf
Bilish	40%	35%
Qo‘llash	40%	40%
Mulohaza yuritish	20%	25%

Matematika va tabiiy fanlar qamrov doiralarini kengroq qamram olish uchun eTIMSS 2019 tadqiqotida PSI deb tanilgan muammolarni hal qilish va tadqiqotchilikkaga oid innovatsion topshiriqlar qo‘shimcha ravishda kiritiladi. PSI larda real olam va laboratoriya sharoitlari simulyatsiya qilinadi, bunda o‘quvchilar matematik masalarni hal qilish va ilmiy tajribalar va tadqiqotlarni o‘tkazish uchun amaliy ko‘nikmalar va mazmun sohasiga oid bilimlarini qo‘llashlari va integratsiya qilishlari mumkin. PSI topshiriqlari vizual jihatdan jozibali, interaktiv vaziyatlarni o‘z ichiga oladi, bunda o‘quvchilarga muammoni



hal qilish uchun bir qator bosqichlarni amalga oshirishning adaptive va tezkor usullari taqdim etiladi.

Bugungi kunda IEAning Amsterdamdagi vakolatxonasi mamlakatlarning bir qator xalqaro tadqiqotlarda ishtirokini ta'minlaydi va IEAning Gamburg bo'limi ma'lumotlarni qayta ishlovchi va tadqiqot o'tkazuvchi yirik markaz hisoblanadi. TIMSS Boston kollejining Linch ta'lim maktabi TIMSS & PIRLS xalqaro tadqiqot markazi tomonidan boshqariladi. TIMSS va PIRLS (The Progress in International Reading Literacy Study), o'qishni baholash xalqaro dasturi, birgalikda IEA tadqiqotlarining asosiy davriyligini tashkil etib, uchta asosiy fanlar (matematika, tabiiy fanlar va o'qish)dan o'zlashtirish darajasini o'lchaydi.

Xulosa va takliflar. Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi? Milliy tizimni isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi. Tadqiqotlardan olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 175-176-bandlari, PF-60-son, 28.01.2022
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda PF-5712-sonli Farmoni.
4. A.A. Ismoilov va b. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnomalar (Matematika fani, tabiiy yo'nalishdagi fanlar, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilar, metodistlari va mazkur sohalar mutaxassislari uchun mo'ljallangan axborotnoma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. - Toshkent, 2020-yil.
5. Mullis, I.V.S., Martin. M.O (Eds). (2017). TIMSS 2019 Assessment Frameworks. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.



6. A.A.Ismailov va b. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi, O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan AXBOROTNOMA 2021-№3 (Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari uchun mo'ljallangan topshiriqlar to'plami)- Toshkent – 2021- yil.

7. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Goh, S.&Cotter, K(Eds). (2016). TIMSS 2015 encyclopedia: Education policy and curriculum in mathematics and science, Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study

8. M.S.Salayeva "Umumiy pedagogika" Darslik, "Nodirabegim" nashriyoti, T:-2021, 269-bet.

9. IEA. TIMSS & PIRLS, International Study Center. TSBM- Talim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining Xalqaro baholash dasturlari PIRLS VA TIMSS talablari bo'yicha topshiriqlarni o'rganish, metodikasini takomillashtirish bosqichlarini ishlab chiqish. talabalarning xalqaro baholash jarayonlariga nisbatan muammolar va yechimlari muhokama qilindi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны этапы изучения и совершенствования методики международных оценочных программ PIRLS и TIMSS для учащихся начальных классов. В статье также обсуждались проблемы и пути решения студентов в процессе международного оценивания.

SUMMARY

In this article, the stages of studying and improving the methodology of the international assessment programs PIRLS and TIMSS for primary school students are described. Students' problems and solutions in the international assessment process were also discussed in the article